

1-SENTABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGI KUNI

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:35 (66992)

2014-yil

1-sentabr



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

YAGONASAN, MUQADDAS VATANIM, SEVGI VA SADOQATIM SENGGA BAXSHIDA, GO‘ZAL O‘ZBEKISTONIM!

23 yil



YUKSAK UNVON MUBORAK, USTOZ!

Eng ulug‘, eng aziz bayramimiz arafasida fan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, adabiyot, madaniyat, san‘at, ma‘naviyat va ma‘rifat, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash yaxshi an‘anaga aylangan.



BIZGA MAKTAB QUCHOG‘IN OCHDI, MA‘RIFATNING NURLARIN SOCHDI



Yangi 2014–2015-o‘quv yilida 1-sinfga qabul qilingan 587 000 nafar o‘quvchi «Prezident sovg‘asi»ga ega bo‘ladi. Ular orasida poytaxtimizning Hamza tumanidagi 198-umumta‘lim maktabining 164 nafar 1-sinf o‘quvchilari ham bor.

(Davomi 3-betda)

SA. MAXMADIYEV olgan sur'atlar

Ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom, hech kimdan kam bo'lmasdan, boshini baland ko'tarib yashaydigan, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, xalqimiz intilayotgan kelajagi buyuk davlatni barpo etishga barkamol avlodgina qodir bo'ladi.

Islom KARIMOV

BARKAMOL AVLODNI TARBIIYALASH – BOSH MAQSADIMIZ

Istiqlolimizning dastlabki yillari-danoq barkamol avlodni tarbiyalash davlatimizning eng ustuvor vazifasi etib belgilandi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturining amalga oshirilishi mamlakatimizda har tomonlama sog'lom avlodni tarbiyalashga qaratilayotgan ulkan e'tiborning yaqqol tasdig'idir.

Yildan yilga xalq ta'limi sohasida ezgu, ibratli ishlar amalga oshirilmoqdaki, buni o'quvchi-yoshlarimizning muvaffaqiyatlarida, qo'lga kiritayotgan yutuqlarida ham kuzatishimiz mumkin. Yangi bilim maskanlari, sport maydonlari, musiqa maktablari, barkamol avlod markazlari o'quvchilar ixtiyorida. Bu kabi binolar zamonaviy texnika jihozlari bilan ta'minlangani yanada ahamiyatli.

2014-yil may oyiga qadar 40 nafardan ortiq iste'dodli yoshlarimiz Fransiya, Italiya, Germaniya, Ruminiya, Rossiya, Ozarbayjon kabi

– Joriy yilda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rish va ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yo'lida qator xayriy ishlar amalga oshirildi. 381 ta maktabda qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi, shundan 220 tasi rekonstruksiya qilindi, 161 tasi kapital ta'mirlandi. Shu bilan birga, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 115 ta sport inshootlari hamda 48 ta bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, qayta rekonstruksiya qilish ishlari bajarildi.

2014–2015-o'quv yilida 1-sinfga qabul qilinadigan 587 ming o'quvchilar uchun 12 nomdagi o'quv-qurollardan iborat Prezident sovg'alari tayyorlanib, umumta'lim maktablariga yetkazildi. Mazkur sovg'alar bilimlar kuni tadbirlarida tantanali ravishda topshiriladi.

«Sog'lom bola yili» Davlat dasturiga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalarni maktabga tayyorlash sifati va maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining kasbiy darajasini oshirishga qaratilgan 2015–2020-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi ishlab chiqildi.

Qolaversa, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni ko'paytirish va maktabga tayyorlashni yaxshilash yuzasidan 1220 ta qisqa muddatli guruhlar tashkil etiladi.

Shuningdek, ilk marotaba «Sog'lom bola yili» Davlat dasturiga muvofiq maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan bolalarning ota-onalari uchun «Bolajon» tayanch dasturi asosida besh nomdagi qo'llanmalar yaratilib, jami 2,5 mln. nusxa darslik (har biri 446 ming nusxadan) ko'paytirilmoqda. Mazkur adabiyotlar maktab kutubxonalariga orqali ota-onalarga tarqatiladi.

Ushbu o'quv yilidagi yangiliklardan yana biri boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yetti nomdagi metodik qo'llanma hamda ularning multimediyali ilovalari tayyorlandi. Natijada, umumta'lim maktablarining 1-sinflarida barcha fanlar mazkur texnologiyalar asosida o'qitilishi yo'lga qo'yildi.

Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan oliy ta'lim muassasalari ilmiy salohiyatidan keng foydalanish

Bugungi kunda xalq ta'limi tizimida 9739 ta umumta'lim maktabi, 4950 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 211 ta «Barkamol avlod» bolalar markazi, 278 ta musiqa va san'at, 483 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi, 23 ta Mehribonlik uylari faoliyat ko'rsatmoqda.

hamda fanlar bo'yicha yig'ilgan ilg'or tajribalar, pedagogik texnologiyalarni umumta'lim maktablari amaliyotiga joriy etish maqsadida oliy ta'lim muassasalari professor o'qituvchilari maktablarga birlashtirildi. Har bir hududda «Mahorat maktablari» faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'qituvchi va o'quvchilarning elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida vazirlik tomonidan yaratilgan 348 ta mazkur resurslar ta'lim portaliga joylashtirildi.

Shuningdek, anjumanda vazirlikning tashabbusi bilan umumta'lim va maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida «Eng obod ta'lim muassasasi» ko'rik-tanlovi e'lon qilindi, unda 28 ta ta'lim muassasalari g'oliblikni qo'lga kiritgani aytib o'tildi.

Yangi o'quv yilida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ta'lim-tarbiya sifatini yanada oshirish maqsadida bir qator yangiliklar ishlab chiqildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining

davlatlarda o'tkazilgan turli nufuzli xalqaro musiqa tanlovlarida g'oliblikni qo'lga kiritdilar. Ba'zan bunday musobaqalarda respublikamiz o'quvchilari birinchi marta ishtirok etishlariga qaramay, ijobiy natijalarga erishmoqdalar. Bunga misol, shu yilning 21–26-iyul kunlari Janubiy Koreyaning Tedjon shahrida maktab o'quvchilari o'rtasida matematika bo'yicha xalqaro musobaqada 31 davlatdan kelgan 600 nafarga yaqin iqtidorli o'quvchilar orasida respublikamiz jamoasi hech kimdan kam emasliklarini amalda isbotlashdi.

Bayram arafasida O'zbekiston Milliy matbuot markazida «Yangi o'quv yilida ta'lim-tarbiya sifatini oshirishdagi ustuvor vazifalar» mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Ulug'bek INOYATOV ham ishtirok etdi va yangi o'quv yilidagi yangiliklar haqida quyidagilarni gapirib berdi.

tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati» mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqini o'rganish yuzasidan tegishli o'quv dasturi va metodik tavsiya ishlab chiqildi. Yangi o'quv yilida mazkur ma'ruza umumta'lim maktablarining 9-sinflarida 6 soatlik fakultativ mashg'ulotlar sifatida o'qitiladi.

Tadbir so'ngida Xalq ta'limi vaziri mustaqillik yillarida davlatimiz tomonidan ta'lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor, farzandlarimiz uchun yaratilayotgan ulkan imkoniyatlar haqida to'liqinlab gapirar ekanlar, o'z navbatida, o'quvchilarimiz ham bunday e'tiborga munosib javob qaytarishlari lozimligini yana bir bor ta'kidladilar.

Eng ulug', eng aziz ayyom – Mustaqilligimizning 23 yilligi barchamizga muborak bo'lsin!

Feruza ADILOVA yozib oldi



YUKSAK UNVON MUBORAK, USTOZ!

(Davomi. Boshi 1-betda)



«O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi» faxriy unvoni sohibi Baxtiyor aka KARIMOV o'quvchilar va nabiralari davrasida.

Xushxabarni eshitgach, bu fidoyi insonni yuksak mukofot bilan qutlash maqsadida maktab sari yo'l oldik. Yangi o'quv yiliga informatika sinflarini tayyorlayotgan ustozni ish jarayonida uchratdik. Nihoyatda kamtar, o'z fanini, bolalarni chin dildan sevuvchi bu fidoyi kasb egasi bilan suhbatimiz juda maroqli kechdi.

1982-yilda Toshkent politexnika instituti (hozirgi Texnika universiteti)ning Avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari fakultetining amaliy matematika guruhini muvaffaqiyatli tamomlagan Baxtiyor akaga ilmiy tekshirish institutiga yo'llanma berildi. O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti ilmiy-tekshirish institutida ilmiy ish boshlagan o'g'lini otasi, iqtisodiyot fanlari nomzodi Rauf aka o'z huzuriga chorladi va shunday dedi:

– O'g'lim, matematikaga qobiliyating yaxshi, senda o'zingda borini boshqalarga ham bera olish iqtidori bor. Qolaversa, bolalarni yaxshi ko'rasan. Sening joying maktab, olgan bilimingni o'quvchilarga yetkazishing, dars berishing kerak...

– Otamning bu so'zlari bir umrga qalbm to'ridan joy oldi, shu bois, maktabga mehrim bo'lakcha, – deydi bir zum xotiralarga berilgan qahramonimiz. – O'qituvchilik faoliyatimni Chilonzor tumanidagi 138-umumta'lim maktabida yuqori sinf o'quvchilariga matematika fanidan saboq berish bilan boshladim. Bu orada maktab direktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Dilbar opa Azimova menga matematika o'qitish metodikalari o'rgatdi. Ustozlarim Turg'un Azlarov, Bahodir Boltayev, Axtam Daliyev, Mahkam Ziyoxo'jayev muallifligida 1993-yildan boshlab ilk

milliy informatika kitoblari yozildi. O'tkir Gadoyboyev bilan hammualliflikda «Kompyuter savodxonligi» nomli uch qismli kitob yaratdik. 2000-yildan beri mazkur 90-umumta'lim maktabida ishlab kelmoqdaman.

– Mana, o'ttiz yildirki, maktabda, o'quvchilar davrasidasiz. Fidokorona mehnatingiz davlatimiz tomonidan munosib baholangan. «O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi» unvoni, «Shuhrat» medali sovrindorisiz. Aytinch, muvaffaqiyatlaringiz asosi nima-da?

– O'qituvchining uchta ildizi bo'ladi: shakllangan ma'naviy dunyoqarashi; o'zining fanini mukammal bilishi; bilganini o'quvchilarga metodik yetkazsa olishi.

Agar o'qituvchi bolalarni o'z farzandi kabi chin dildan sevsa, maqsadiga erishishi tayin. Bu borada buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino shunday degan edi: «Qayerda yaxshi muhit bo'lsa, o'sha yerda yaxshi xulq va ilm shakllanadi».

Baxt, quvonch qo'shaloq keladi, deyishgani rost ekan. Baxtiyor akaning qizlari Fazilatxon bu yil Toshkent pediatriya institutini bitirib diplom oldi. Kenja o'g'li Abduhamid esa Toshkent davlat moliya instituti talabasi degan sharafli nomga sazovor bo'ldi, katta nabirasi Asilabonu 1-sinfga o'qishga bordi, nevaralar soni to'rt nafarga yetdi. Biz shahrimizning fayzli go'shalaridan biri bo'lgan Oqlon mahallasida umrguzaronlik qilayotgan Baxtiyor aka va Dilorom opani tahtiriyatimiz a'zolari va ko'p ming sonli o'quvchilarimiz nomidan yuksak mukofot bilan samimiy qutlaymiz.

Dilorom HOTAMOVA.
Z. NISHONOVA olgan surat



YAGONASAN, MUQADDAS VATAN!

Yaqinda Jizzax tumanidagi 1-umumta'lim maktabida shunday deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi, «Mehnat shuhrati» ordeni sohibasi Dilorom Ko'chimova hamda maktabning «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati boshlang'ich tashkiloti yetakchisi Mashhura Hasanova so'z olib, mustaqil yurtimizdagi o'zgarishlar hamda davlat ramzlari haqida ma'ruza qildi. So'ngra o'quvchilar o'rtasida Istiqlolga erishgach, qo'lga kiritilgan yutuqlar haqida savol-javob bo'lib o'tdi.

– Jonajon O'zbekistonimiz kundan kunga chiroy ochib bormoqda, – deydi maktab o'quvchisi Sevinch Odilova. – Men mana shunday hur va ozod

yurtida o'sib-ulg'ayayotganimdan faxrlanaman.

Shuningdek, tadbirda Behzod Abdurahmonov, Hamida Shavkatova, Sevinch Sobirjonova kabi iqtidorli o'quvchilar faol ishtirok etib, «Men yashayotgan o'lka» qo'shig'ini ijro etishdi.

Tadbir doirasida tashkil etilgan «Gulla, yashna, hur O'zbekiston!», «Otarlar jasorati – farzandlarga meros» deb nomlangan fotoko'rgazma yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Feruza ABDULLAYEVA,
Jizzax tumani

OZODLIK VA OBODLIK ELCHISI

Mana, mustaqillikka erishganimizga ham 23 yil to'ldi.

Shu muddat ichida yurtimizda olamshumul o'zgarishlar, bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Milliy an'ana va qadriyatlarimiz qayta tiklandi, buyuk ajdodlarimizning merosi chuqur o'rganila boshlandi.

Bugun yurtimizning qay go'shasiga bormang, yurtdoshlarimiz tilidan birgina so'zni eshitasiz: Mustaqillik muborak! Yoshlarga qanot baxsh etgan ozodlik va obodlik elchisi – Istiqlol bayrami abadiy bo'lsin!

Gulhayo TOLIBOYEVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 8-maktab-internatining 8-sinf o'quvchisi

MAKTABDA MUZEY OCHILDI

Marg'ilon shahridagi 16-umumta'lim maktabida muassasaning 70 yilligi munosabati bilan tarix muzeyi tashkil etildi.



yerdagi eksponatlarining barchasi shahardagi tarixiy yodgorlik majmualaridan keltirilgan.

– Noyob va qadimiy eksponatlar milliy hunarmandchilikka oid bo'lib, atlas to'quvchilik, misgarlik, kosibchilik, tikuvchilik, kashatichilik, do'ppido'zlik namunalari ham muzeydan o'rin olgan, – deydi maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Mohira Toshtemirova.

Muzeydagi ko'za, xum, tegirmon toshlari, shamchiroq, dehqonchilik, hunarmandchilik asbob-uskunalari, ayollar taqinchoqlari, turli yillarda zarb qilingan pul va tangalar kabi nodir eksponatlar kishida go'yo tarixdan so'zlayotgandek tasavvur uyg'otadi.

Noyob va qadimiy osori-atiqalardan iborat ushbu muzey bugunni olis o'tmish bilan bog'lovchi ko'priklar vazifasini o'tamoqda. E'tiborlisi, u

Muhammadjon MAHMUDOVI,
Marg'ilon shahri

Ilm va ma'rifat, ta'lim va tarbiya fidoyisi bo'lgan respublikamiz o'qituvchilarini eng ulug', eng aziz bayramimiz - Istiqlolning 23 yilligi bilan tabriklaymiz. Yangi o'quv yili munosabati bilan ustozlarni suhbatga chorladik.

HAYOTIMIZ BOG'BONI, UMRIMIZ CHAROG'BONI

IQTIDORLILARGA STIPENDIYA

Nasiba UMRZOQOVA, Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahridagi 9-umumta'lim maktabi o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi:

– Maktabimizda iqtidorli o'quvchilar talaygina. Viloyat hokimligi tomonidan izlanuvchan o'quvchilar uchun «Xorijiy tili eng yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi» stipendiyasi joriy etilgan. Bugungi kunda maktabimizning olti nafar o'quvchisi ana shu stipendiya sohibidir.



QO'SHALOQ BAYRAM SHUKUHI

Hanifa Sultonova, Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi 6-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchisi:

– 32 yildan buyon o'quvchilarga ona tili va adabiyoti fanidan saboq beraman. O'quvchilarim «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini intiqlik bilan kutishadi. Ularning gazetxonligidan behad xursand bo'laman. O'quvchilarimdan Mahliyo

Turg'unboyevaning ijodiy ishlari «Tong yulduzi» gazetasida chop etilganida quvonchimizga quvonch qo'shildi.

Fursatdan foydalanib, ushbu nashrning jajji muxlislarini, respublikamiz ustoz-murabbiylarini qo'shaloq bayram – Mustaqilligimizning 23 yilligi hamda yangi o'quv yili bilan chin qalbidan tabriklayman.



ZUBAYDA olgan suratlar

O'QUV YILI YANGI BINODA

Madina RASULOVA, Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 23-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchisi:

– Viloyatimiz o'quvchilari mana bir necha yildirki, «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida munosib ishtirok etib, umumjamoa hisobida birinchi o'rinni band etib kelishmoqda. Men faoliyat yuritayotgan maktab ona tili va adabiyoti faniga ixtisoslashgan bo'lib, shu maskanning ilk qaldirg'ochlaridanman. Bugungi kunda ustozlarim qatorida turganimdan faxrlanaman.

Maktabimiz uchun yangi o'quv binosi, sport zali qurilib, zamonaviy o'quv texnika, laboratoriya jihozlari bilan ta'minlangan. Bu esa bizga quvonch baxsh etdi.

Z. MAMATQULOVA yozib oldi

REJALAR BELGILAB OLINDI

Kuni kecha poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 249-umumta'lim maktabida xalq ta'limi xodimlarining an'anaviy avgust kengashi bo'lib o'tdi. Unda tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi mudiri Ra'no Rahimova so'zga chiqib, kengash ishtirokchilarini Istiqlolimizning 23 yilligi hamda yangi 2014–2015-o'quv yili bilan samimiy qutladi.



A. HAMIDULLAYEV olgan surat

Shundan so'ng, ta'lim muassasalarini boshqarishda zamonaviy yondashuv, maktablarda Mehnat Qonunchiligiga amal qilish va umumta'lim fanlari bo'yicha o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»ning Respublika bosqichi yakunlari sho'balarga bo'lingan holda muhokama qilindi.

O'z sohasining jonkuyarlari dars jarayonini kompyuter, multimedia va laboratoriya jihozlaridan samarali foydalangan holda o'tkazish bo'yicha o'z tajribalarini o'rtoqlashdilar.

Yig'ilish so'ngida faol va tashabbuskor o'qituvchilar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Mahmudjon AZIMOV

Iqtidorli tengdoshing

ROBIYAXON RAQS TUSHGANDA...

Farzandning kelajakda qaysi kasbni egallashi, qanday fe'l-atvor egasi bo'lishi dastlabki tarbiya, kamol topayotgan oilasidagi muhitga bog'liq.

Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 1-sinfini a'lo baholarga yakunlagan Robiya Kunarovaning raqs san'atiga mehr qo'yishiga oilasidagi muhit sabab bo'lgan bo'lsa, ajabmas. Katta qizi Feruzadagi iste'dodni juda erta payqagan Shohidaxon opa uni taniqli raqqosa Rushana Sultonovaga shogirdlikka berdi. Mashg'ulotlarga opasi bilan birga boradigan, uning bayram tadbirlaridagi chiqishlarini hayrat va hayajon bilan tomosha qiladigan Robiyaxonning murg'ak qalbida raqsga havas uyg'ondi. Kenja qizining ham san'atga mehr qo'yganidan Shohidaxon opa behad quvondi. Chunki san'at yosh qalblarda



yaxshilik, ezgulik urug'larini kurtak otishi, qizlarning sog'lom, qomati raso bo'lib ulg'ayishida raqsning o'rmi beqiyos ekanligini juda yaxshi angelaydi. Ana shunday ezgu maqsadlar bilan jajji Robiyaxonni tumandagi 75-musiq va san'at maktabiga yetaklab keldi. Bugungi kunda xoreografiya yo'nalishining 2-sinfida tahsil olayotgan Robiyaxon ustози Dilafroz Alixo'jayevadan raqs san'atining nozik, nafis harakatlarini o'rganib kelmoqda. Mazkur maktab qoshidagi «Yosh g'unchalar» raqs dastasi a'zosi sifatida tuman miqyosida o'tkazilayotgan bayram tadbirlarida o'z raqslari bilan ishtirok etib, nafaqat tengdoshlari, balki kattalarning ham olqishiga sazovor bo'lyapti. Yaqinda bir tadbirda biz ham jajji raqqosaning iste'dodiga tan berdik. Uning ijrosidagi «Xorazmcha raqs»dan zavqlanib, beixtiyor davraga tushib ketganlar ham bo'ldi...

Iste'dodli raqqosa Parizodaga havas qilib, uningdek mohir raqqosa bo'lishni orzulaydigan qizaloq o'z ustida tinimsiz izlanadi. Yosh bo'lsa-da, vaqtni juda qadrlaydi. Jajji raqqosa ta'tilda ingliz tilidan olgan bilimlarini

mustahkamladi, harflarni, sonlarni takrorladi, opasidan yangi so'zlarni o'rgandi. Ayni kunlarda oyijonisi olib bergan chiroyli o'quv qurollarini bejirim papkasiga joylab, yangi o'quv yilining boshlanishini intizorlik bilan



Z. MAMATQULOVA olgan suratlar

kutmoqda. Qadrdon maktabi, ustozlari, sinfdoshlarini juda sog'ingan, axir!

Har bir yurtning sharafiga uning iqtidorli, iste'dodli farzandlari dunyoga taratadi. Yillar o'tib, Robiyaxon ham betakror raqslari bilan o'zbek raqs san'ati dovrug'ini olamga tanitsa, ajab emas!

F. JALILOVA

PARVOZI BALAND YOSHLAR

Bolajonlar, bugun har biringiz o'z iqtidoringiz, salohiyatingiz bilan ulkan yutuqlarni qo'lga kiritmoqdasiz. Orangizda hunar o'rganib, bu orqali yurtimiz nomini ko'klarga ko'tarishni maqsad qilgan yoshlar ham talaygina.

Bu galgi maqolamiz orqali namanganlik tengdoshlaringiz va ular qatmaydigan «Barkamol avlod» bolalar markazi faoliyati haqida hikoya qilamiz. Ushbu markaz yoshlari qanday yutuqlarga erishishibdi, deysizmi? Marhamat, biz bilan markaz bo'ylab sayohat qiling.

Namangan tumanida qad rostlagan «Barkamol avlod» bolalar markazi binosi o'tgan o'quv yilida o'quvchilarga munosib sovg'a bo'ldi. Qayta ta'mirlanib, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan ushbu markazda ayni paytda bir qancha to'garaklar faoliyat yuritmoqda.

Tuman «Barkamol avlod» bolalar markazi monitoring rahbari Muhayyo opa Ibrohimovaning aytishlaricha, bu yerdagi o'quvchilar turli ko'rik-tanlov va bellashuvlarda muntazam ishtirok etib, talaygina yutuqlarga erishibdi. Ayniqsa, «Jajji yulduzlar» tanlovida qatnashgan folklor to'garagi a'zolaridan Dilbek G'anisherov, Hosilbek Valijonov tumanda 1-o'rin, viloyat bosqichida esa 2-o'rinni egallagani, «Sog'lom



bola buyuk ishlarga qodir» shiori ostida «Yilning eng iqtidorli yosh ixtirochisi» ko'rik-tanlovida Nafisa Turg'unova, Gavharoy Vaqqosova, Elbek Arslonovning viloyat bosqichida faxrli o'ringa sazovor bo'lishlari nafaqat bolalarni, balki to'garak rahbarlarini ham birdek quvontiribdi. Shuningdek, murabbiylar o'rtasida

o'tkazilgan «Yilning eng yaxshi to'garak rahbari» ko'rik-tanlovida qatnashgan «Yosh ekolog» to'garagi rahbari Dildora Naimova faxrli o'rinni egallashga muvaffaq bo'libdi. Markazda eng ilg'or to'garak rahbarlaridan Bekzod Sotiboldiyevning eng kichik iqtidorli shogirdi Hosilbek Valijonov «Yosh folklor ijrochilari» ko'rik-tanlovida 1-o'rinni egallabdi.

Yaqinda markazda tashkil etilgan «Yosh arxitektor» to'garagi faoliyat yurita boshladi. Ayni paytda bu yerda yigirmadan ortiq o'quvchi-yoshlar hunar sirlarini puxta o'rganishmoqda.

To'garak rahbari F. Jamolov shogirdlari shahar, viloyat va respublika miqyosida o'tkazilgan ko'plab ko'rik-tanlov va ko'rgazmalarda o'z ijodiy ishlari bilan ishtirok etib, faxrli o'rinnarni egallab kelmoqdalar. Jumladan, to'garak a'zosi Jahongir Tursunboyev «Yosh ijodkor-ixtirochi» ko'rik-tanlovining «Yosh arxitektor» yo'nalishi bo'yicha shahar va viloyat bosqichi g'olibi bo'ldi.

Aziz o'quvchilar, Siz ham yuqoridagi kabi to'garaklarga qatnab, biror-bir hunar o'rganyapsizmi? Unda, o'zingiz haqingizda tengdoshlaringizga so'zlab berishga tayyor turing. Chunki navbatdagi safarimiz viloyatingizdagi «Barkamol avlod» bolalar markaziga bo'lishi mumkin.

Ozoda TURSUNBOYEVA

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ! LET'S LEARN ENGLISH!

HAPPY INDEPENDENCE DAY!

This is the day when our nation sings,
This is the day when the liberty bell rings.
This is the day when we all remember,
And we celebrate our Independence!

My homeland is Uzbekistan,
I'm proud of living here.
In peace and love we'll carry on,
For a future without fear.
Where children play, study and sing,
Old people drop no tear.
My country counts on me to build,
I'll stay forever near ...



WORD SEARCH (CROSSWORD)

c	e	l	e	b	r	a	t	e	f
b	p	i	c	n	i	c	p	m	r
a	a	b	f	u	n	b	a	b	e
n	r	e	a	l	x	t	r	l	e
n	t	r	c	t	a	o	a	e	d
e	y	t	g	p	m	g	d	m	o
r	m	y	p	e	a	c	e	n	m


Try to find all of the hidden words in the word search puzzle below.

Word list:
banner, flag, emblem, freedom, fun, parade, party, picnic, peace, liberty, celebrate.

THINGS WE MAKE

make

- a mistake
- a meal
- money
- a friend
- a decision
- a noise
- a progress



For example: He **made** a few **mistakes** in the exam.
I had to **make** my own **dinner** last night.

THINGS WE DO

do

- homework
- the housework
- subjects
- a course
- the shopping
- research
- a favour
- something/anything



For example: I always **do** my **homework** at night.
My mother **does** all the **houseworks** in our house.
He's **doing** **research** in physics at National University.

Test

- Anvar couldn't ... the homework last night.
a) do b) make c) did
- Did he ... many mistakes?
a) does b) do c) make
- They ... a lot of noise during the party.
a) did b) made c) do

IT IS INTERESTING (Bu qiziq)

At the end or in the end?

At the end – birikmasi o'zbek tiliga **biror narsaning oxiri** yoki **tugashi** deb tarjima qilinadi, **in the end** esa gapda – **va nihoyat** deb ishlatiladi.

For example: At the end of the book they got married.
In the end we went home (finally).

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

Think! Think! Think!

Which is wrong?

One of these sentences is wrong from its meaning, find it:

- Independence day is the best national holiday in Uzbekistan.
- Independence day is the common holiday in Uzbekistan.
- The best holiday is Independence day in Uzbekistan.

Nozima YO'LDOSHEVA

ISTIQLOLNING MUNAVVAR TONGI



SURXONIM

Shuhratidan sharaf topgan Surxonim,
Mehmoniga zar to'n yopgan Surxonim.
Istiqloldan istiqboli nur emib,
Boshida oppoq tong otgan Surxonim.

Nomi dunyoga ketgan Teshiktosh,
Ajddolarga bo'lgan aziz beshiktosh.
Qarshingda turibman bugun egib bosh,
Bobotog'im, Boysuntog'im, Surxonim.

Necha ming yillardan so'ylar Zaraut,
O'nlab Termiziyga Vatan bo'lgan yurt.
Temur bobom piring qo'lin tutgan yurt,
Iftixorim, qalb ardog'im Surxonim.

Hanuz yangrar chanqovuzning nolasi,
Dunyoga dong taratgan «Shalola»si.
Doston bo'lgan «Alpomish»day bolasi,
Do'mbirada tor, chanog'im Surxonim.

Aslo yo'qdir ta'rifining adog'i,
Gullarga burkandan bu kun har yog'i,
Malikaga muqaddasdir tuprog'i,
Charos ko'zim, ol yanog'im Surxonim.

Malika XURANOVA,
Surxondaryo viloyati, Denov
pedagogika kolleji o'quvchisi



SHU TUPROQDA YASHNADI TANIM

Tug'ildim men shu yurtda,
Shu tuproqda yashnadi tanim.
Gardlaringni surtaman ko'zga,
Qadrlisan ona Vatanim.

Quyosh tongda ko'kda yaltirar,
Oymomosi yo'lim yoritir.
Yulduzlarim adashsam hamon,
Yo'l ko'rsatar oldinga tomon.

Humo ko'kda egalik qilar,
Bizga sog'lik, yaxshilik tilar.
Osmonimiz musaffo bo'lsin,
Tun yuzini yoritib tursin.

Durdona BAHROMOVA,
Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek
tumanidagi 233-umumta'lim
maktabining 5-sinf o'quvchisi



ONA VATANIM

Bag'ringda ulg'aydim, o'zingga cheksiz,
Mehrim baxshidadir, ona Vatanim.
Istiqlol nuridan nurafshon bo'lding,
O'zingsan dunyoda, go'zal chamanim.

Serquyosh o'lkanan, jahonda tengsiz,
Ko'rkingni madh etmoq, faxr-iftixor.
Har bitta giyohing qadrin bilarkan,
Muqaddas tuprog'ing doim menga yor.

Qalbimda quvonch-u ko'zlarimda yosh,
Yurtda mustaqillik ulug' ayyomi.
Yigirma uch yillik aziz to'yingni,
Qutlayman, ko'nglimda ishq ehtiromi.

Sunnatilla USANBOYEV,
Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi
34-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Kattalar bilan o'qing

BOLANGIZ MAKTABGA CHIQQI

Har gal 2-sentabr kuni kattalar hamrohligida ilk bor maktab tomon shodon ketayotgan bolajonlarga ko'zim tushganida, yuragim hapriqib ketadi. Poytaxtdan olisda kechgan bolaligim, maktabga birinchi bor qadam qo'yan kunlarim beixtiyor yodimga tushadi.

Shokir degan sinfdoshim bo'lardi. Ozg'in, nimjonligi bois, kitob-daftarlari solingan xaltasini zo'rg'a ko'tarib kelardi. Uning xaltasida hamma narsa bo'lardi. Maktabni bitirgunimizcha biror narsam uyda qolibdi, deganini hech kim eshitmagan. Biz esa uni bo'shanglikda ayblardik. Hech yodimdan chiqmaydi. Adashmasam, uchinchi sinfda o'qiyotgan chog'imiz edi. Bir kuni ustozimiz har birimizdan kelajakda kim bo'lish niyatida ekanligimizni so'rab qoldi. Birin-ketin orzularimizni ayta boshladik.

– Men direktor bo'laman, – dedi Shokir unga navbat yetganida.

– Yo'g'-e, – dedi ustoz bu so'z beixtiyor tilidan uchganini o'zi

ham sezmay. – Ko'pchilikni boshqarish oson ish emas.

– Eplayman, – dedi Shokir ko'zlari chaqnaq. – Hali ko'rasizlar.

Biz-ku mayli, nazarimda, ustoz ham uning gaplariga ishonqirama-ganday edi. Shu voqeadan so'ng Shokirning o'qishlari borgan sari yaxshilani b bordi. Ayniqsa, jismoniy tarbiyaga o'zgacha mehr berdi. Futbol bo'ynagan paytimiz hamma u bilan bir jamoada to'p surgisi kelardi.

O'sha paytlar biz sinfdoshlar bir-birimiznikiga borib, birgalashib dars tayyorlardik. Maktabni bitirish arafasida Shokirlarnikida bir masalani yechamiz



deb kunning kech bo'lganini ham sezmay qolibmiz. O'sha kuni ularnikida qoldim. Ertalab nonushta qilib maktabga yo'l oldik. Do'stimning onasi bizni darvozagacha kuzatib qo'yarkan, o'g'lining yelkasini ohista silab, duo qildi:

– Direktor bolam, yaxshi borib keling.

Bu gapni eshitib, yalt etib Shokirga qaradim. Uning yuzlariga chiroyli tabassum yoyildi. Ko'chaga

chiqqanimizda yelkama qo'lini qo'ydi.

– Birinchi sinfga chiqqan kunimdan boshlab onam har kuni mana shunday duo qiladilar. Avvaliga biroq jahlim chiqdi. Keyinroq esa o'zimdagi ham rahbar bo'lish istagi paydo bo'ldi. Nimaga bunday bo'lganini hali-hali tushunolmayman, – dedi.

Biroq chalg'iganday bo'ldim. Bolalik xotiralari juda shirin. Berilib ketganingni ham bilmay qolasan. Hech kim otanachalik farzandning iqtidori va imkoniyatini sezmaydi. Kitobini ko'ksiga avaylab bosganicha ketayotgan jamalaksosch qizaloq bir kun kelib hassos shoira bo'lar, qalamini qitirlatgancha bitta masalani qayta-qayta o'chirib yozayotgan o'g'lingiz mashhur matematik bo'lar, yana kim biladi deysiz? Ha, aytganday, Shokirjon do'stim uzoq yillar rahbarlik vazifasida xizmat qilib, elga tanildi. Bu esa alohida mavzu, unga bir kuni yana qaytamiz. Bugun esa Sizning bolangiz maktab tomon, porloq ezgu-istaklar sari yo'lga tushdi. Bu yo'lda unga ishonchli hamroh bo'ling.

Yusuf ABDULLAYEV

SPORTCHILARIMIZNING ULKAN G'ALABASI

NANJING
2014
YOUTH OLYMPIC GAMES

Shu yilning 16–28-avgust kunlari Xitoyning Nankin shahrida II o'smirlar yozgi olimpiada o'yinlari bo'lib o'tdi. Ushbu nufuzli musobaqada dunyoning 204 davlatidan 3793 nafar o'smirlar sportning 30 turi bo'yicha g'oliblik uchun kurash olib bordilar.

Quvonarlisi, Olimpiada o'yinlarida o'zbekistonlik 28 nafar yosh iqtidor egasi sportning 14 turi bo'yicha ona Vatanimiz sharafini munosib himoya qildi. Agarda to'rt yil muqaddam Singapurda bo'lib o'tgan birinchi o'smirlar yozgi olimpiada o'yinlarida 21 nafar sportchimizni 11 ta sport turida ishtirok etganligini inobatga olsak, litsenziyalarni qo'lga kiritishda sezilarli o'sishga erishganimizni kuzatish mumkin. Yana bir e'tiborli jihati, qariyb ikki hafta davom etgan bu galgi olimpiada o'yinlari yakunlariga ko'ra, medallarni qo'lga kiritishda ham yuksalish yaqqol ko'zga tashlandi.

Yosh sportchilarimiz taekvando, og'ir atletika, dzyudo, boks, yunon-rum kurashi, sport gimnastikasi, o'q otish kabi sport turlari bo'yicha 4 ta oltin, 3 ta kumush va 3 ta bronza medalini qo'lga kiritib, Istiqlolimizning 23 yillik to'yiga munosib sovg'a hozirlashdi.

Ma'lumki, Nankindagi musobaqada davlatlar qo'lga kiritgan



medallarga mikst va jamoaviy bahslarda qayd etilgan natijalar kiritilmadi. Shu sababli, sportchilarimizning 2 ta oltin medali umumjamoahisobidagi natijalarimizga qo'shilmadi. Shunga qaramay, yosh atletlarimiz o'zlariga bildirilgan ishonchni a'lo darajada oqlab, yakunda norasmiy umumjamoahisobida 177 davlatni ortda qoldirgani holda 27 o'rinni egalladi.

Jumladan, yunon-rum kurashi bo'yicha vazni 50 kg.gacha bo'lgan polvonlar bellashuvida Ilhom

Bahromov barcha raqiblarini ishonchli tarzda ortda qoldirib, o'smirlar yozgi olimpiada o'yinlarining oltin medalini delegatsiyamiz g'aznasiga qo'shib qo'ydi. Boks bahslarida ishtirok etgan umiddi sportchimiz, Osiyo va jahon chempioni Bektemir Meliq'oziyev ham o'zining nimalarga qodir ekanligini namoyish etib, yakunda olimpiada chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldi.

Shuningdek, dzyudo kurashi

bahsda «GEESINK» jamoasini mag'lub etib, oltin medalni qo'lga kiritdi.

Hamyurtimiz Vladimir Svechnikov 10 metr masofadan o'q otish bo'yicha mikst bahslarida bolgariyalik Lidiya Nencheva bilan birgalikda finalda Singapur/Misr duetini mag'lubiyatga uchratdi va o'smirlar yozgi olimpiada o'yinlari g'olibi bo'ldi.

Bundan tashqari, Umida Abdullayeva taekvando, Farhodbek Sobirov og'ir atletika, Sulaymon Latipov boks bo'yicha kumush medalni, Suhrob Tursunov dzyudo, Adhamjon Ergashev og'ir atletika,

Timur Qodirov sport gimnastikasi bo'yicha bronza medallariga sazovor bo'lishdi.

Bu kabi yutuqlarni qo'lga kiritishimizda mamlakatimizda Prezidentimiz rahnamoligidagi yoshlarni sportga keng jalb etish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, farzandlarimiz orasidan yosh iste'dod egalarini kashf etish masalasiga alohida e'tibor qaratiylayotgani muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Biz sportchilarimizga oldindagi nufuzli musobaqalarda ham omad tilaymiz.

Sa'dullo TURSINOV



bo'yicha jamoaviy musobaqalarda finalga chiqqan hamyurtimiz Suhrob Tursunovning «ROUGE» jamoasi (ushbu jamoa tarkibidan O'zbekiston, Portugaliya, Puerto-Riko, Argentina, Gollandiya, Rossiya, Fransiya sportchilari joy olishgan) hal qiluvchi

BAHODIRNING MUVAFFAQIYATI

Yaqinda hamyurtimiz, yosh professional bokschi Bahodir Mamajonov ugandalik Osuma Akabaga qarshi o'zining navbatdagi jangini o'tkazdi. AQSHning Ogayo shtati Kolambus shahrida bo'lib o'tgan sakkiz raundlik reyting bellashuvi juda shiddatli kechdi hamda ochkolar hisobi (78:74) bo'yicha o'zbekistonlik charm qo'lqop ustasi raqibini mag'lubiyatga uchratdi.

– Jang juda ajoyib tarzda o'tdi. Akaba haqiqatan ham kuchli bokschi ekan. Afsus tirsagimning jarohati biroz pand berdi. Aks holda, Osumani nokaut qilardim. Ammo yakunda jangni o'z foydamga hal qilishga muvaffaq bo'ldim.

Fursatdan foydalanib, eng ulug', eng aziz bayram – Istiqlolimizning 23 yillik to'yi bilan hamyurtlarimizni muborakbod etaman. Bugungi g'alabamni aynan mustaqillik bayramiga bag'ishlayman, – dedi Bahodir Mamajonov.

Eslatib o'tamiz, Bahodirning raqibi Osuma Akaba shu kungacha 36 ta jang o'tkazib, shularning 31 tasida g'alaba qozongan. E'tiborlisi, ugandalik bokschi 24 jangda raqiblarini nokaut bilan mag'lub etgan. Uning hisobida faqat beshta mag'lubiyatli jang bor edi, xolos. O'zbekistonlik sportchi bilan jangdan so'ng bokschining mag'lubiyatlari oltitaga yetdi.

Jamshid KAMOL

Namangan viloyatining Chortoq tumanida 1997–1998-yillarda tug'ilgan yoshlar o'rtasida muaytab bo'yicha respublika turniri bo'lib o'tdi.

BAYRAMGA BAG'ISHLANDI

Eng ulug', eng aziz ayyom – Mustaqillik bayramiga bag'ishlab «Yagonasan, muqaddas Vatanim, sevgi va sadoqatim senga baxshida, go'zal O'zbekistonim!» shiori ostida tashkil etilgan musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan yetmish nafardan ziyod yosh sportchi ishtirok etdi.

O'n bir vazn toifasida bo'lib o'tgan bellashuvlar natijasiga ko'ra, Namangan viloyati vakillari birinchi o'rinni egalladi. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent va Buxoro viloyatlari hamda poytaxtlik sportchilar ham g'oliblar safidan joy oldi.



KUCHLILAR G'OLIB BO'LDI

Jizzaxda bolalar va o'smirlar sport maktablari tarbiyalanuvchilari o'rtasida stol tennisi hamda shaxmat bo'yicha respublika birinchiligining final musobaqalari bo'lib o'tdi.



O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Madaniyat va sport ishlari vazirliklari hamkorligida o'tkazilgan musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan har ikki sport turi bo'yicha 14 tadan jamoa g'oliblik uchun bahslashdi.

Stol tennisi musobaqasida Toshkent viloyati jamoasi birinchi, andijonliklar ikkinchi, mezbolar jamoasi uchinchi o'rinni egalladi.

Shaxmat bo'yicha bahslarda jamoa hisobida birinchilik Xorazm viloyati yosh shaxmatchilariga nasib etgan bo'lsa, keyingi o'rinlarni Navoiy viloyati va Toshkent shahri jamoalari band etdi.

Shoh MUHAMMAD



QUTLOV!



Bugungi kunda yurtimizda taniqli shoir **AXTAMQUL**ning she'rlari kirib bormagan xonadon topilmasa kerak.

Yaqinda uning «Akademnashr» nashriyoti tomonidan chop etilgan «Boshimda osmon aylanar» nomli she'riy to'plami hamda

joriy yilda respublika matbuotida chop etilgan, Vatanni madh etuvchi bir qator publitsistik maqolalari O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan e'lon qilingan «Vatan uchun yashaylik!» respublika tanlovida faxrli o'ringa loyiq topildi.

Gazetamizning adabiyot va san'at bo'limi mudiri, jonkuyar hamkasbimizni ushbu yutuq bilan muborakbod etamiz.

Tahririyat

Sarvar **MIRZOYEV**, Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi 6-umumta'lim maktabi o'quvchisi



Soliha **MIRZOIDOVA**, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 265-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Oppoq qog'ozda avvalo, turli chiziqlar yordamida eskiz chiziladi. O'quvchilik davrimizda tasviriy san'at ustozimiz bularni yordamchi chiziqlar, deb atardi. Ana

shu yordamchi chiziqlar ko'magida turli manzaralar, portret, guldasta yoki natyurmort chizib, ustozimizdan a'lo baho olishga intilardik.

Olis surxondaryolik Sarvar Mirzoyevning bo'yoqda chizgan bir-

TASVIRLARDA VATAN MEHRI



Akmal **SHOAKBAROV**, Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi 40-umumta'lim maktabi o'quvchisi

biridan go'zal rasmlari ham har qanday kishini hayratga soladi. U rang tanlashni, ularning bir-biriga uyg'unlashtirishni tasviriy san'at ustози Munavvar opa Jumayeva ko'magida o'rganib kelmoqda.

Mo'yqalamni o'ziga oshno bilgan yana bir tengdoshingiz Soliha Mirzoidova bo'sh vaqtlarida qalamda rasm chizishdan tashqari plastilin yordamida turli manzaralarni tasvirlashni yoqtiradi.

Tengdoshlaridan qolishmaydigan Akmal Shoakbarov ham chizgilarida ona Vatanimizning go'zal manzarasini tasvirlashga harakat qilibdi.

LAYLO

BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

«O'ZBEKISTONIM» AYLANMA KROSSVORDI

1. Davlat ramzi.
2. Xalqimizning azaliy orzusi.
3. Asakada ishlab chiqarilgan avtomobil markasi.
4. Jahon chempionati o'yinlariga hakamlik qilish bo'yicha rekord o'rtatgan FIFA referisi.
5. O'rta asr qomusiy allomasi, birinchi globus ixtirochisi.
6. Yilning iste'dod sohiblariga taqdim

7. Shamsiy yil hisobi bo'yicha respublikamiz mustaqillikka erishgan oy nomi.
8. Bolalar tashkiloti.
9. O'zini o'zi boshqaradigan ma'muriy hududiy birlik.
10. Ekranlashtirilgan o'zbek xalq qahramonlik dostoni.

Tuzuvchi:
Husan **ORIPOV**



1-sentabr 2014

Aziz kichik bekalar, bayram arafasida yaqinlaringizning ko'nglini olib, mazali pishiriq tayyorlamoqchimiz? U holda qalam-qog'ozingizni olib, tayyor turing. Bu gal sizlarga olmal pirog tayyorlashni o'rgatmoqchimiz.

OLMALI PIROG



Kerakli masalliq: 250 gramm margarin, 2,5 stakan un, 3 dona tuxum, 0,5 piyola shakar, 2 dona olma.

Tayyorlanishi: dastlab xona haroratida yumshatilgan margarin qirg'ichdan o'tkaziladi. So'ngra un qo'shilib, uvalanadi. Alohida idishga tuxumning sarig'ini ajratib, shakar qo'shiladi va yaxshilab aralashiriladi. Tuxumli aralashma margarinli unga qo'shilib, yumshoq xamir qoriladi. So'ngra 2 ta zuvalaga bo'linib, muzlatgichga bir soatga qo'yiladi. Bu orada olmalar yuvilib, parrak shaklida kesilib, quritiladi. Gaz pechi qizigunga qadar patnis yog'lanib, muzlatgichdagi birinchi zuvala bir tekisda qirg'ichdan o'tkaziladi. Qirg'ichdan o'tkazilgan xamir ustiga olmalar terib chiqiladi va uning ustidan ikkinchi zuvala qirg'ichdan o'tkaziladi. So'ngra gaz duxovkasiga qo'yiladi va 25-30 daqiqa davomida pishiriladi.

Tayyor pirog bo'laklanib, lipokchalarga solinadi va dasturxonga tortiladi. Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruz **ADILOVA**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

Tahrir Hay'ati: Omonulla YUNUSOV, Abduq'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSIYOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib), Sobitxon TURG'UNOV, Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'gli

Manzillimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: info@tongyulduzi.uz www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etiladi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 30088 Buyurtma - S 775